

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI



Elektron ilmiy-ommabop jurnal

2025

2 -SON

(+998) 50-005-45-69

https://t.me/demografiya_mehnatbozori

demografiya_mehnat_bozori@mail.ru

**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2025-yil
2-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY' ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,
Axmedov Durbek Quدراتillaevich, i.f.d., professor
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,
Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,
Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor
Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.
Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor
Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor
Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)
Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor
Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD
Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD
Asqarova Muhabbat Ibraximovna
Bahriddinova Muazzam Azam qizi

MUNDARIJA

Умурзаков Баходир Хамидович, Акбарова Малика Ильхомовна <i>Стратегические направления повышения занятости населения в Респуб- лике Узбекистан: анализ современного состояния и прогнозирование на период до 2030 года.....</i>	4
Saidjabbor Shoiria Saidg'affor q'izi <i>Гендер тенглиги ва минтақаларнинг барқарор ривожланишини таъминлашнинг хорижий амалиёти.....</i>	17
Файзиева Дилафруз Шухратовна <i>Демографик ўсиш ва иқтисодий ривожланишнинг ўзаро алоқадорлиги.....</i>	34
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li <i>O'zbekiston aholi soniga tashqi mehnat migratsiyasining ta'sirini baholash.....</i>	46
Xudayberdiyev Islamjan Zakirovich <i>Aholining kapital bozorda ishtirok etishga bo'lgan qiziqishini baholash.....</i>	55
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li <i>Hududlarda yashil iqtisodiyot sharoitida innovatsion jarayondan foydalangan holda zamonaviy mehnat bozorining rivojlanishi.....</i>	63
Yunusova Ugiloy Bolqiboyevna <i>Problems and solutions in organizing public events in Uzbekistan.....</i>	74
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li <i>Moliyaviy salohiyatni baholash metodologiyasini shakllanishida makroiqtisodiy indikatorlarning ahamiyatliligi.....</i>	88
Soatov Farhod Komiljon o'g'li <i>Raqamli platformalar orqali real vaqt rejimida boshqaruv hisobotlarini shakllantirish</i>	103
Жулиева Гулноз Юлдашевна, Джулибеков Нурмат Каршибекович <i>«Зелёная» экономика Республики Узбекистан, перспективы развития.....</i>	113
Умурзаков Баходир Хамидович <i>Меҳнат ресурсларининг сифат ва малакавий таркибини шакллантиришда инновацион тенденциялардан фойдаланишнинг хориж тажрибаси таҳлили.....</i>	120
Мирзаева Матлуба Ғайбулла қизи <i>Банклар ресурс базасини мустаҳкамлашда капиталнинг ўрни.....</i>	129
Mamatqulova Mushtariy Komiljon qizi <i>O'zbekiston fiskal siyosatining mehnat migratsiyasi va bandlikka ta'siri: konseptual tahlil</i>	135
Jurayev Elyorbek Sobirjon o'g'li <i>Kichik biznes uchun investitsion muhitni yaxshilashning asosiy yo'nalishlari.....</i>	
Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li <i>Xorijiy investitsiyalar va sanoat korxonalarini modernizatsiyalash: muammo va imkoniyatlar</i>	160
Suvonov Bekniyoz Baxtiyor o'g'li <i>Mehnat ko'rsatkichlari tahlilining xorij tajribasi va undan respublikamizda qo'llash jihatlari.....</i>	140

AHOLINING KAPITAL BOZORDA ISHTIROK ETISHGA BO'LGAN QIZIQISHINI BAHOLASH

Xudayberdiyev Islamjan Zakirovich

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti

Yetakchi mutaxassis

+99899-472-02-42

ixudoyberdiyev222@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda O'zbekistondagi kapital bozorning holati va rivojlanayotgan mamlakatlardagi ko'rsatkichlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, tahlil doirasida aholi orasida so'rov o'tkazildi va uning natijasida aniqlangan muammolar yuzasidan hamda tahlillar asosida kapital bozorni rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: kapital bozor, fond bozori, valyuta bozori, jamg'armalar, moliyaviy savodxonlik, bank depozitlari, bozor infratuzilmasi.

ОЦЕНКА ИНТЕРЕСА НАСЕЛЕНИЯ К УЧАСТИЮ НА РЫНКЕ КАПИТАЛА

Худайбердиев Исламжан Закирович

Институт макроэкономических и региональных исследований

Ведущий специалист

Аннотация. В данной статье проведен сравнительный анализ текущего состояния рынка капитала в Узбекистане и показателей в развивающихся странах. Также в рамках анализа был проведен опрос среди населения, по результатам которого были разработаны предложения по развитию рынка капитала на основе выявленных проблем и анализа.

Ключевые слова: рынок капитала, фондовый рынок, валютный рынок, сбережения, финансовая грамотность, банковские депозиты, рыночная инфраструктура.

ASSESSING THE PEOPLE'S INTEREST IN PARTICIPATING IN THE CAPITAL MARKET

Khudayberdiev Islamjan Zakirovich

Institute for Macroeconomic

and Regional Studies Leading specialist

Abstract. This article presents a comparative analysis of the current state of the capital market in Uzbekistan and key indicators in developing countries. The study also includes a public survey, the results of which informed recommendations for developing the capital market based on identified challenges and analysis.

Keywords: Capital market, stock market, foreign exchange market, savings, financial literacy, bank deposits, market infrastructure.

Kirish.

So'ngi yillarda iqtisodiyotni liberallashtirish, erkin kapital bozorini yaratishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Bu borada ishlarni davom ettirish va uzoq muddatli istiqboldagi strategik maqsadlarga erishishda kapitalga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish maqsadida "O'zbekiston-2030" strategiyasida bir qator maqsadlar belgilangan. Xususan:

- erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar savdolari hajmini 8 milliard dollarga yetkazish;
- pay va venchur jamg'armalar faoliyatini yo'lga qo'yish orqali portfel investitsiyalar hajmini 2 barobarga oshirish;
- 40 ta davlat ishtirokidagi korxonalar aksiyalarini "Xalq IPO"ga chiqarish, aholini IPOda qatnashishini rag'batlantirish mexanizmlarini joriy qilish.
- chet ellik nominal saqlovchilar hamda kastodian banklarning mahalliy kapital bozorida qatnashishi uchun infratuzilmani yaratish.[1]

Yuqorida belgilangan maqsadlarga erishish uchun nafaqat yirik xususiy va institutsional investorlar balki fuqarolarni ham kapital bozorida faoliyat yuritishiga imkoniyat yaratish muhim ahamiyatga ega.


Shu maqsadda ushbu maqolada O'zbekistondagi kapital bozorining joriy holati tahlil qilindi va aholi o'rtasida kapital bozorda ishtirok etishga qiziqishni baholash yuzasida so'rov o'tkazildi. Tahlil va so'rovnoma asosida yakunda xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Adabiyotlar tahlili.

Jahon banki tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra **kapital bozori** - moliyaviy tizimning bir qismi bo'lib, iqtisodiyotda jamg'armalarni kapitalga ehtiyoji mavjud bo'lganlarga yo'naltirishga qaratilgan tarmoqqa aytiladi.[2] Bugungi kunda mahalliy kapital bozorining asosiy tarkibiy qismlari banklar, fond birjasi hamda davlat qimmatli qog'ozlar bozori hisoblanadi. (1-rasm)

Turli adabiyotlarga ko'ra, aholining ishtiroki orqali kapital bozorining rivojlanishi va unda investitsiyaviy faollik darajasining ortishi fuqarolarning daromadlari, oliy ta'lim qamrovning ortishi[3], moliyaviy savodxonlikligi kabi omillarga bog'liq[4].

Kuchli institutlar va yaxshi faoliyat yurituvchi huquqiy tizim ham mahalliy bozorlarning rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega[5], chunki bu omillar investorlar huquqlarini, shu jumladan minoritar investorlar manfaatlarini himoya qilish uchun asos yaratadi. Bu esa bozor ishtirokchilariga o'yin qoidalarini yaxshi tushunish orqali xatarlarni baholash va qaror qabul qilishga imkon yaratadi.



1-rasm. O'zbekistondagi kapital bozor ekotizimi


Изоҳ: Муаллиф тадқиқотлари асосида шакллантирилган

2019-2024 yillar davomida aholing jon boshiga real umumiy daromadlari hajmi 31,5 foizga o'sdi va 9 916,6 ming so'mdan 21 991,9 so'mga yetdi (4-rasm). 2023 yilga kelib 25 yosh va undan katta aholining oliy va undan yuqori ta'lim darajasi esa 2019 yilgi 16,4 foizdan, 17,2 foizgacha ko'tarildi.

Shuningdek, shaffof va yaxshi tashkillashtirilgan bozor infratuzilmasi uning barqaror va uzluksiz faoliyat ko'rsatishi bilan bir qatorda, uni yanada rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bozor infratuzilmasi o'zida, savdo tizimini tartibga soluvchi tuzilmalar va savdo platformalari, shuningdek, bozor ma'lumotlarini qayta ishlash, baholash va tekshirish imkoniyatini beruvchi tarkibiy qisimlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston kapital bozori tahlili. O'zbekistonda kapital bozorga aholi jamg'armalarini investitsiya vositasi sifatida bank depozitlari, "Toshkent" respublika fond birjasi (fond birjasi) aksiyalar va korporativ obligatsiyalar hamda jamoaviy investitsiya mexanizmlari orqali jalb qilish mumkin. "O'zbekiston valyuta birjasi" (valyuta birjasi) orqali davlat qimmatli qog'ozlari savdolarida


aholining ishtiroki cheklangan bo'lib unda banklar va ayrim institutsional ishtirokchilargina qatnasha oladi.



2-rasm. Aholi jon boshiga real daromadlar miqdori va o'sishi dinamikasi (mln so'm va %)

Manba: Statistika agentligi ma'lumotlari asosida shakllantirilgan


Banklar tomonidan oxirgi besh yilda jismoniy va yuridik shaxslar uchun o'rtacha tortilgan depozit stavkalari mos ravishda 2,1 foiz va 0,3 foiz punktga ortdi. Buning natijasida 2019-2024 yillar oralig'ida banklardagi jami depozit qoldig'ining YaIMdagi ulushi 18,0 foizdan 21,2 foizgacha o'sib, kapital bozordagi yuqori ulushi saqlanib kelmoqda (2-rasm). 2024-yilning yakuniga ko'ra bank depozit qoldig'ining 53,6 foizini muddatli va 36,4 foizini talab qilib olguncha bo'lgan depozitlar, 10 foizini esa jamg'armalar tashkil etadi.



3-rasm. Depozitlar hamda davlat obligatsiyalari hajmi va YaIMga nisbati dinamikasi (mlrd so'm va %)

Manba: Statistika agentligi va Markaziy bank ma'lumotlari

Valyuta birjasi orqali muomalaga chiqarilgan davlat qimmatli qog'ozlari savdosining YaIMdagi ulushi esa 2021 yildagi 3,9 foizdan, 2023 yilda 5,5 foizga yetgan (2-rasm). Taqqoslash uchun 2023 yilda davlat obligatsiyalar savdosi hajmining YaIMga nisbati Boku fond birjasida 1,8 foizni, Qozog'iston fond birjasida 1,8 foizni, Istanbul birjasida 5,5 foizni tashkil etgan.[6]



4-rasm Fond birjasi savdolari hajmi va YaIMga nisbati dinamikasi (mlrd so'm va %)

Manba: Statistika agentligi va "Toshkent" respublika fond birjasi ma'lumotlari

Fond birjasidagi savdolar hajmi valyuta birjasiga nisbatan past ko'rsatkichlarni qayd etmoqda. 2019-2023 yillar davomida fond birjasi orqali amalga oshirilgan jami savdolar hajmining YaIMga nisbati 0,1-0,6 foiz oralig'ida o'zgargan bo'lsa, 2024 yilga kelib birja savdolari hajmi 19,6 trln. so'mni yoki YaIMning 1,4 foizini tashkil etdi (3-rasm).

2023 yilgi ma'lumotlarga ko'ra dunyoning rivojlanayotgan mamlakatlari qatoridagi Vyetnam va Turkiya kabi davlatlarda aksiyalar va korporativ obligatsiyalar savdosi hajmining YaIMga nisbati mos ravishda Hoshimin (Vyetnam) fond birjasida 36,1 foizni, Istanbul (Turkiya) birjasida 88,2 foizni tashkil etgan.[6]

Fond birjasining bozor kapitalizatsiyasi 2019 yilda 52,3 trln. so'mni (YaIMga nisbatan 8,8 foiz) tashkil qilgan bo'lsa, 2024 yilning yakuniga kelib ushbu ko'rsatkich 242,4 trln. so'mga (YaIMga nisbatan 16,3 foiz) yetdi. Ushbu davrda fond bozori likvidligi 0,5 foizdan 7,9 foizgacha o'sdi. Erkin muomalada bo'lgan aksiyalarning (free float) bozor kapitallashuvi esa 4,3 trln so'mni yoki YaIMga nisbatan 0,3 foizni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun 2023 yilda likvidlik ko'rsatkichlari Istanbul (Turkiya) birjasida 323,0 foizni, Hoshimin (Vyetnam) fond birjasida 72,6 foizni, Indoneziya fond birjasida 18,5 foizni tashkil etgan.[6]

Yuqoridagi ko'rsatkichlar tahlili shundan darak beradiki so'ngi yillarda respublikada kapital bozori o'sish ko'rsatkichlarini qayd etib kelayotganiga qaramay to'laqonli faoliyat yuritishi uchun ishga solish mumkin bo'lgan imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi. Shulardan biri sifatda fuqarolarni mahalliy kapital bozoriga faol jalb qilish orqali bo'lishi mumkin. Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda fuqarolar orasida kapital bozorida, ayniqsa fond bozorida ishtirok etish ko'rsatkichi pastligicha qolmoqda. Quyida ushbu muammoga olib keluvchi sabablar va bartaraf etish omillari adabiyotlar tahlili va so'rovnoma o'tkazish orqali tahlil qilindi.

Aholining ishtirokini cheklovchi omillar va so'rovnoma natijalari.

Elektron so'rovnoma shaklida o'tkazilgan aholi orasida kapital bozorda ishtirok etishga bo'lgan qiziqishni o'rganishda jami 291 ta (N=291) respondent qatnashishga rozilik bildirdi. Bunda tanlanma ixtiyoriy tarzda shakllantirildi. Respondentlarning 48,4 foizini 25-40 yoshlilar, 34,2 foizini 18-24 yoshlilar, 13,7 foizini 41-55 yoshlilar, 3,7 foizini 55 yoshdan yuqorilar tashkil qildi. Jins tarkibiga ko'ra so'rovnomada ishtirok etganlarning 93,6 foizi erkaklar, 6,4 foizini ayollar sanaladi. Ta'lim darajasiga ko'ra oliy ma'lumotlilar 75,3 foizni, o'rtamaksus ta'lim darajasidagilar 16,5 foizni, umumiy o'rta ta'lim darajasiga egalar 8,2 foizga teng bo'ldi.

Respondentlarning 56,0 foizi shaxsiy jamg'armalari mavjudligini bildirgan bo'lib, ularning 61,3 foizi jamg'armalarining bir qismini qimmatli qog'ozlarda saqlashini bildirdi.

Ta'kidlash kerakki, 2021 yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan MDH davlatlarida aholining moliyaviy savodxonligini baholash natijalariga ko'ra O'zbekiston fuqarolarining 89 foizi faol tarzda jamg'arishini qayd etgan. Bu ko'rsatkich Belarusda 75 foiz, Qozog'istonda 73 foizni, Rossiyada 68 foizni tashkil etgan.[7]

So'rovnomada qatnashgan fond birjasi ishtirokchilarining fikriga ko'ra, kompaniyalarning hisobdorlik tizimi yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi (55 foiz), dividend to'lovlari bilan muammolar (52 foiz), erkin muomaladagi aksiyalarning kamligi (51 foiz), bozorning texnologik infratuzilmasi yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi (36 foiz) kabi asosiy muammolar bozor rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, jamg'armasi mavjud bo'lgan respondentlar tomonida fond birjasida ishtirok etmasligining asosiy sabablari sifatida bozorga nisbatan ishonchsizlik (44,4 foiz) va axborot yetishmasligi yoki cheklanganligi (33,3 foiz) keltirilgan.

Fond birjasida ishtirok etmaydigan respondentlarning 47,6 foizi real aktiv ko'inishida (mashina, ko'chmas mulk, oltin), 42,8 foizi uyda xorijiy valyutada, 38,1 foizi milliy valyutada bank depozitlarida, 17,5 foizi uyda milliy valyutada, 17,5 foizi bankda xorijiy valyutada saqlashini bildirdi.

Ulardan kelgusi 12 oyda fond birjasida ishtirok etishga qay darajada qiziqish bildirishi haqidagi savolga 30,1 foizi yuqori darajada, 57,1 foizi o'rta darajada, 12,8 foizi ishtirok etmasligini bildirdi.

So'rovnoma ishtirok etgan fuqarolar orasida jamg'arma shakllantirmaslikning asosiy sabablari sifatida oylik xarajatlarining yuqoriligi (41,4 foiz) va daromadlarining past ekanligi (28,1 foiz) qayd etildi.

Barcha respondentlardan fond bozori haqida qo'shimcha bilim olish maqsadida ta'lim resurslaridan foydalanishga bo'lgan qiziqish darajasini baholashga nisbatan 71,5 foiz ijobiy javob olindi. Shuningdek, qanday axborot resurslaridan foydalanish fuqarolarni kapital bozorda faol ishtirok etishiga undashi haqidagi savolga ishtirokchilarning 44,3 foizi onlayn kurs va vebinarlar, 39,8 foizi korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlarining yagona portali, 37,1 foizi moliyaviy savodxonlik treninglari, 35,1 foizi axborot maqolalari va ijtimoiy bloglar orqali degan javoblarni bildirdi.

Xulosa va takliflar .

Bugungi kunda O'zbekistonda kapital bozori rivojlanishning dastlabki bosqichlarida ekanligini ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda aholi turmush darajasining yaxshilanish, daromadlari va oliy ta'lim qamrovining ortishi yaxshi faoliyat ko'rsatuvchi bozorni shakllantirish uchun qulay sharoitning yuzaga kelganligi anglatadi. O'tkazilgan so'rovnoma ham aholi orasida bank depozitlari yoki ko'chmas mulk singari an'anaviy investitsiya turlariga muqobil variantlarga ehtiyoj mavjud ekanligini ko'rsatdi.

Bu esa kelgusida sohaga yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etgan holda kapital bozorida xususiy sektorning ulushini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlarni davom ettirish zaruriyatini taqozo etadi.

O'tkazilgan tahlillar natijasiga ko'ra quyidagilar taklif etiladi:

- Milliy qarz bozorini rivojlantirish maqsadida valyuta birjasi va fond birjasi savdolarini o'zaro muvofiqlashtirishni yakuniga yetkazish. Davlat qimmatli qog'ozlari savdosini investitsiya vositachilari orqali keng ommaga takliflarni yo'lga qo'yish.

- Iqtisodiyotga uzoq muddatli qarz mablag'larni jalb qilishni rag'batlantirish maqsadida amaldagi davlat qimmatli qog'ozlari bilan bir qatorda inflyatsiyaga bog'langan (TIPS-treasury inflation protected securities) qimmatli qog'ozlari emissiyasini amalga oshirish.

- Ixtiyoriy pensiya badallarini to'lash tizimini isloh qilish va aholini pensiya fondlari orqali o'z jamg'armalarini shakllantirishi uchun rag'bat

mexanizmlarini ishlab chiqish. Pensiya fondlarida jamg'arilgan mablag'larni elektron portal orqali individual nazorat qilish imkoniyatini yaratish.

- Minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish va emitentlarning moliyaviy hisobotlarini e'lon qilish portali (Istiqbolli loyihalar milliy agentligi korporativ axborot yagona portali openinfo.uz) faoliyatini ommalashtirish va shaffofligini ta'minlash.

Адабиётлар:

1. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son Farmoni. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. "Capital Markets Development. A Primer for Policymakers". The World Bank Group. 2020. URL: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/228291627375113518/pdf/Capital-Markets-Development-A-Primer-for-Policymakers.pdf>
3. M. Kaustia, A. Conlin, N. Luotonen. "What drives stock market participation? The role of institutional, traditional, and behavioral factors". Journal of Banking & Finance. March. 2023 URL: <http://sciencedirect.com/science/article/pii/S0378426622003235>
4. M. Rooij, A Lusardi, R Alessie. "Financial literacy and stock market participation". National bureau of economic research. October 2007. URL: https://www.nber.org/system/files/working_papers/w13565/w13565.pdf
5. V. Pociusa, S. Stungurienė, A. Paškevičius. "The factors of the attractiveness of the capital market of Lithuania". Contemporary Issues in Business, Management and Education 2013. URL: <https://www.paskevicius.com/publikacijos/1-s2.0-S1877042813055924-main.pdf>
6. URL: <https://statistics.world-exchanges.org/>
7. "Financial Literacy Levels in the Commonwealth of Independent States in 2021". OECD. URL: https://www.oecd.org/en/publications/financial-literacy-levels-in-the-commonwealth-of-independent-states_394dbe88-en.html

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

